



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе .....	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi .....	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari .....	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv .....	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari .....	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari .....	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari .....	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish .....	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari .....	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari .....	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari .....	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar .....	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar .....	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari .....	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili .....	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means .....	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati .....	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication .....	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi .....	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil .....	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli .....	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) .....	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish .....	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit .....	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari .....	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции .....	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов .....	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета .....	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	



# BADIIY GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti  
Jismoniy madaniyat yo'nalishi 1- bosqich, 101- guruh talabasi  
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

ilmiy rahbar: Akbarova Dono Rahmatdjonovna

Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida katta o'qituvchi  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritiladi. Badiiy gimnastika sportchidan nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki koorditatsiya, ritmni his qilish, harakat estetikasi, ijodiy ifoda va psixologik barqarorlikni ham talab etadi. Shu bois mashg'ulot jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash sportchilarning texnik mahoratini, ijro madaniyatini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, videotasvir tahlili, individual ta'lim trayektoriyasi, differensial yondashuv va refleksiv baholash usullarining samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, jismoniy madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun badiiy gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarni metodik jihatdan to'g'ri tanlash va ularni mashg'ulot mazmuniga moslashtirish zarurligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** badiiy gimnastika, innovatsion pedagogik texnologiyalar, jismoniy madaniyat, mashg'ulot jarayoni, interfaol metodlar, harakat estetikasi, sport tayyorgarligi.

**Abstract:** This article highlights the theoretical and practical significance of using innovative pedagogical technologies in rhythmic gymnastics classes. Rhythmic gymnastics requires not only physical fitness from an athlete, but also coordination, sense of rhythm, movement aesthetics, creative expression, and psychological stability. Therefore, the use of modern pedagogical technologies alongside traditional approaches is an important factor in developing technical mastery, performance culture, and independent thinking skills among learners. The article analyzes the effectiveness of interactive methods, information and communication tools, video analysis, individual learning trajectories, differentiated approaches, and reflective assessment. It also substantiates the need for methodically appropriate selection of innovative technologies and their adaptation to the content of rhythmic gymnastics classes for students majoring in physical culture.

**Key words:** rhythmic gymnastics, innovative pedagogical technologies, physical culture, training process, interactive methods, movement aesthetics, sports training.

**Аннотация:** В данной статье освещается теоретическое и практическое значение использования инновационных педагогических технологий на занятиях художественной гимнастикой. Художественная гимнастика требует от спортсмена не только физической подготовленности, но и координации, чувства ритма, эстетики движения, творческого самовыражения и психологической устойчивости. Поэтому применение современных педагогических технологий наряду с традиционными подходами является важным фактором развития технического мастерства, исполнительской культуры и способности к самостоятельному мышлению у занимающихся. В статье анализируется эффективность интерактивных методов, информационно-коммуникационных средств, видеоанализа, индивидуальной образовательной траектории, дифференцированного подхода и рефлексивного оценивания. Также обосновывается необходимость методически правильного выбора инновационных технологий и их адаптации к содержанию занятий художественной гимнастикой для студентов направления физической культуры.

**Ключевые слова:** художественная гимнастика, инновационные педагогические технологии, физическая культура, учебно-тренировочный процесс, интерактивные методы, эстетика движения, спортивная подготовка.

## KIRISH

Badiiy gimnastika jismoniy madaniyat va sport tizimida estetik harakat, ritm, musiqiylik, texnik aniqlik hamda ijodiy ifodani uyg'unlashtiruvchi murakkab sport turi sifatida alohida o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalishda mashg'ulotlarni samarali tashkil etish faqatgina jismoniy mashqlarni takrorlash bilan cheklanmaydi, balki sportchining harakat koordinatsiyasi, egiluvchanligi, muvozanatni saqlash qobiliyati, emotsional barqarorligi va ijro madaniyatini izchil rivojlantirishni talab etadi. Shuning uchun badiiy gimnastika mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jismoniy madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar va yosh sportchilar bilan ishlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash mashg'ulot mazmunini boyitish, o'quvchilarning faolligini oshirish, individual imkoniyatlarini aniqlash va har bir sportchiga mos metodik yo'l tanlash imkonini beradi. Ayniqsa, badiiy gimnastikada harakatlarning nozikligi, musiqaga mos ijro etilishi, predmetlar bilan bajariladigan mashqlarning aniqligi va kompozitsion yaxlitligi katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, pedagogik texnologiyalar mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda boshqarishga xizmat qiladi. Video tahlil, interfaol mashg'ulotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, differensial topshiriqlar, refleksiv baholash va bosqichma-bosqich o'rgatish usullari sportchilarning xatolarini ko'rish, ularni anglash va mustaqil tuzatish malakasini shakllantiradi.

An'anaviy mashg'ulotlarda murabbiy ko'proq ko'rsatma beruvchi va nazorat qiluvchi shaxs sifatida ishtirok etsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan jarayonda sportchi ham faol subyektga aylanadi. U o'z harakatini tahlil qiladi, natijani baholaydi, ijro sifati bo'yicha fikr yuritadi va mashg'ulotga ijodiy munosabat bildiradi. Bu esa badiiy gimnastika mashg'ulotlarida nafaqat texnik mahoratni, balki estetik did, mas'uliyat, intizom, o'zini boshqarish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, jismoniy madaniyat ta'limida badiiy gimnastika mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar orqali mashg'ulot jarayoni yanada mazmunli, samarali, tahliliy va shaxsga yo'naltirilgan shaklga ega bo'ladi. Shu jihatdan badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini o'rganish jismoniy madaniyat yo'nalishidagi ta'lim sifatini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi jismoniy tarbiya nazariyasi, sport pedagogikasi va gimnastika metodikasiga oid ilmiy manbalarda turli jihatlardan yoritilgan.

Abdullayev, Xonkeldiyev va Kerimovlarning jismoniy tarbiya nazariyasiga oid ishlari mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, jismoniy yuklamani boshqarish va sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Xo'jayev va Usmonxo'jayev tadqiqotlarida jismoniy madaniyat ta'limida pedagogik mahorat, metodik izchillik va o'quvchilarning faolligini oshirish omillari muhim o'rin egallaydi.

Nazarova hamda Karimovanning gimnastika va badiiy gimnastikaga oid ishlari harakat texnikasi, egiluvchanlik, koordinatsiya, ritm va estetik ijro masalalarini yoritadi.

Azizxo'jayeva va Saidahmedovning pedagogik texnologiyalar haqidagi qarashlari esa interfaol metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiv baholash va innovatsion yondashuvlarni sport mashg'ulotlariga tatbiq etish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv asos qilib olindi. Avvalo, mavzuga doir pedagogik, sport nazariyasi, jismoniy madaniyat metodikasi va gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etishga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Bu orqali badiiy gimnastika mashg'ulotlarining mazmuni, sportchilarning yosh va individual xususiyatlari, harakat ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mashg'ulot samaradorligiga ta'siri nazariy jihatdan aniqlashtirildi.

Metodik tahlil jarayonida an'anaviy mashg'ulot usullari bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladigan mashg'ulot shakllari qiyosiy o'rganildi. Bunda ko'rsatib berish, tushuntirish, takrorlash va nazorat qilish kabi klassik usullar bilan bir qatorda interfaol topshiriqlar, videotasvir asosida tahlil qilish, kichik guruhlarda ishlash, individual mashq dasturlarini tuzish, differensial yondashuv, muammoli vaziyatlar yaratish va refleksiv baholash metodlarining imkoniyatlari ko'rib chiqildi.



Ayniqsa, badiiy gimnastikada harakatlarning aniqligi va estetik ifodasini baholashda videokuzatuv usulidan foydalanish muhim metodik vosita sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda kuzatish metodi ham muhim o'rin tutdi. Mashg'ulot jarayonida sportchilarning mashqlarni bajarishdagi faolligi, harakatlarni o'zlashtirish tezligi, murabbiy ko'rsatmalarini qabul qilishi, musiqaga moslashuvi, predmetlar bilan ishlashdagi aniqligi va o'z xatolarini anglash darajasi tahlil qilindi. Kuzatish natijalari innovatsion texnologiyalar qo'llanganda sportchilarda mustaqil harakat qilish, ijodiy yondashish va o'zini baholash ko'nikmalari faolroq shakllanishini aniqlashga xizmat qildi.

Shuningdek, suhbat va pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi. Murabbiylar, jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari hamda mashg'ulot ishtirokchilarining fikrlari asosida innovatsion texnologiyalarning amaliy qulayligi, mashg'ulotga ta'siri va metodik samaradorligi baholandi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, badiiy gimnastika mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llashda bosqichlilik, individuallashtirish, ko'rgazmalilik, tahliliy yondashuv va muntazam refleksiya tamoyillariga tayanish zarurligi asoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv-mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. An'anaviy yondashuvlarda sportchi ko'proq murabbiy ko'rsatmalarini takrorlashga yo'naltirilgan bo'lsa, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda u faol ishtirokchi, kuzatuvchi, tahlil qiluvchi va o'z harakatini baholovchi subyekt sifatida shakllanadi. Bu holat, ayniqsa, badiiy gimnastikada muhim bo'lgan texnik aniqlik, harakatlar uyg'unligi, musiqiy ritmni his qilish va estetik ijro madaniyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mashg'ulotlarda videotasvir tahlilidan foydalanish sportchilarning o'z harakatlarini tashqi kuzatuvchi sifatida ko'rishiga imkon yaratdi. Natijada gavda holati, qo'l va oyoq harakatlarining aniqligi, burilish, sakrash, muvozanat elementlari hamda predmetlar bilan bajariladigan mashqlardagi xatolarni tezroq aniqlash imkoniyati yuzaga keldi. Bunday yondashuv sportchida faqat murabbiy tanqidiga tayanish emas, balki o'z-o'zini tahlil qilish va harakat sifatini ongli ravishda tuzatish ko'nikmasini rivojlantirdi. Bu esa mashg'ulot jarayonining refleksiv xususiyatini kuchaytirdi.

Interfaol metodlar va kichik guruhlarda ishlash usullari sportchilarning mashg'ulotdagi faolligini oshirdi. Guruhli topshiriqlar orqali sportchilar bir-birining harakatini kuzatish, xatolarni aniqlash, tavsiya berish va ijro sifati bo'yicha fikr almashishga o'rgandi. Bu jarayon jamoaviy hamkorlik, kommunikativ faollik va mas'uliyat hissining rivojlanishiga xizmat qildi. Badiiy gimnastika ko'pincha individual sport turi sifatida talqin qilinsa-da, mashg'ulot jarayonida hamkorlik va o'zaro tahlil sportchilarning umumiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Individual va differensial yondashuvlar sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, egiluvchanligi, koordinatsiyasi, psixologik holati hamda harakatlarni o'zlashtirish sur'atini hisobga olish imkonini berdi. Natijada murabbiy har bir sportchiga mos topshiriq hajmi, mashq murakkabligi va takrorlash sonini belgilash orqali mashg'ulot jarayonini shaxsga yo'naltirilgan shaklda tashkil eta oldi. Bu esa ortiqcha zo'riqishning oldini olish, qiziqishni saqlab qolish va texnik o'sishni bosqichma-bosqich ta'minlashga xizmat qildi.

Umuman olganda, innovatsion pedagogik texnologiyalar badiiy gimnastika mashg'ulotlarida sportchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, harakatlarni tahlil qilish malakasi va ijro madaniyatini rivojlantirishda samarali metodik vosita ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar jismoniy madaniyat yo'nalishida bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda badiiy gimnastika mashg'ulotlarini zamonaviy, tahliliy va shaxsga yo'naltirilgan asosda tashkil etish zarurligini tasdiqlaydi.

Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi nafaqat mashg'ulot jarayonini zamonaviylashtirish, balki sportchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Ushbu sport turida texnik harakatlar, musiqiy ifoda, ritmik uyg'unlik, estetik ko'rinish va ijodiy yondashuv bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, murabbiy faqat mashqlarni o'rgatuvchi emas, balki sportchining harakat tafakkurini shakllantiruvchi pedagog sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion texnologiyalar aynan shu jarayonda sportchining mashg'ulotga ongli munosabatini kuchaytiradi.

Muhokama jarayonida shuni alohida ta'kidlash kerakki, badiiy gimnastikada natijaga erishish ko'p jihatdan takroriy mashqlar sifatiga bog'liq. Biroq oddiy takrorlash har doim ham yuqori samaradorlikni ta'minlamaydi. Agar sportchi harakat mazmunini anglamasa, xatoni ko'ra olmasa yoki murabbiy ko'rsatmalarini mexanik ravishda bajarsa, texnik o'sish sekinlashadi. Shu bois videotasvir tahlili, refleksiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va o'z-o'zini baholash usullari mashg'ulotni ongli faoliyatga aylantiradi. Sportchi o'z ijrosini ko'rganida, gavda holati, qo'l harakati, predmet bilan ishlash aniqligi va musiqaga moslik darajasini ancha chuqurroq tushunadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar murabbiy va sportchi o'rtasidagi pedagogik munosabatni ham o'zgartiradi. An'anaviy mashg'ulotda murabbiy asosiy axborot manbai bo'lsa, zamonaviy yondashuvda u yo'naltiruvchi, tahlil qiluvchi va rag'batlantiruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Bu esa sportchining mustaqil qaror qabul

qilishi, o'z imkoniyatini baholashi va ijodiy tashabbus ko'rsatishiga sharoit yaratadi. Ayniqsa, jismoniy madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bunday yondashuv kelajakdagi kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan metodik kompetensiyalarni shakllantiradi.

Shuningdek, differensial va individual yondashuvlarning ahamiyati katta. Badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchilarning egiluvchanlik, koordinatsiya, chidamlilik, ritmni his qilish va psixologik tayyorgarlik darajasi bir xil bo'lmaydi. Innovatsion texnologiyalar yordamida murabbiy har bir sportchining imkoniyatiga mos topshiriqlarni tanlaydi, yuklamani nazorat qiladi va o'sish dinamikasini kuzatadi. Bu jarayon mashg'ulotlarda ortiqcha zo'riqishning oldini olish, motivatsiyani oshirish va sportchilarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va refleksiv baholashni qo'llash ta'lim jarayonini yanada mazmunli qiladi. Sportchi harakatni faqat bajaruvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, anglovchi va takomillashtiruvchi shaxsga aylanadi. Shu jihatdan innovatsion pedagogik texnologiyalar badiiy gimnastika mashg'ulotlarida texnik tayyorgarlik, estetik tarbiya, ijodiy faollik va kasbiy-pedagogik yondashuvni birlashtiruvchi samarali metodik vosita sifatida baholanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv-mashg'ulot jarayonining mazmuni, sifati va samaradorligini oshirishda muhim metodik omil hisoblanadi. Ushbu sport turi jismoniy tayyorgarlik, texnik aniqlik, musiqiylik, ritmik uyg'unlik, estetik ifoda va ijodiy yondashuvni bir butun holda talab qilgani sababli, mashg'ulotlarni faqat an'anaviy takrorlash usullari asosida tashkil etish yetarli natija bermaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar esa sportchining mashg'ulotdagi faolligini oshiradi, uning o'z harakatlarini anglash, tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, videotasvir tahlili, interfaol metodlar, individual va differensial yondashuv, axborot-kommunikatsiya vositalari, refleksiv baholash hamda muammoli topshiriqlar badiiy gimnastika mashg'ulotlarining amaliy samaradorligini kuchaytiradi. Ayniqsa, videokuzatuv sportchilarga o'z xatolarini aniq ko'rish, harakat texnikasini ongli ravishda baholash va murabbiy tavsiyalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Interfaol metodlar esa mashg'ulot jarayonida hamkorlik, muloqot, o'zaro tahlil va ijodiy faollikni kuchaytiradi. Bu holat badiiy gimnastikada nafaqat jismoniy, balki psixologik va estetik tayyorgarlikni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash murabbiy faoliyatining mazmunini ham boyitadi. Murabbiy mashg'ulot jarayonida faqat ko'rsatma beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, kuzatuvchi, tahlil qiluvchi va sportchining individual rivojlanishini boshqaruvchi pedagog sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa jismoniy madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun muhim kasbiy tajriba yaratadi. Chunki bo'lajak mutaxassis zamonaviy sport ta'limida har bir shug'ullanuvchining imkoniyati, tayyorgarlik darajasi, qiziqishi va rivojlanish sur'atini hisobga olgan holda mashg'ulot tashkil eta olishi zarur.

Umuman olganda, badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish texnik mahoratni shakllantirish, ijro madaniyatini rivojlantirish, sportchilarning mustaqil fikrlashi va estetik didini yuksaltirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur yondashuv mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirilgan, tahliliy, ijodiy va natijador jarayonga aylantiradi. Shu bois jismoniy madaniyat ta'limida badiiy gimnastika mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirish va sport ta'limi sifatini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. - Toshkent: O'zDJTI, 2005. - 300 b.
2. Karimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. - Toshkent: Zar qalam, 2004. - 240 b.
3. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2010. - 320 b.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2006. - 192 b.
5. Radjapov U.R., Khakimdjanovala K.B. The role of physical education in improving the health of women of the Republic of Uzbekistan // Ustozlar uchun. - 2021. - Vol. 3, № 1. - P. 162-165.
6. Radjapov U.R., Xakimdjanovala K.B. Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish usullari // FarDU. Ilmiy xabarlar. - 2024. - № 2. - B. 113-116.
7. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya, 2003. - 172 b.
8. Xo'jayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017. - 416 b.
9. Nazarova D. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. - 256 b.
10. Karimova M. Badiiy gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. - Toshkent: Ilm ziyo, 2020. - 210 b.
11. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - Москва: Физкультура и спорт, 2008. - 544 с.
12. Гавердовский Ю.К. Теория и методика спортивной гимнастики. - Москва: Советский спорт, 2014. - 368 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.